

AUDIO-MATNLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA TALABALARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNING SHAKLLANISHI*Latipov A.A.¹**Annotatsiya:*

Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda, xususan, tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda audio-matnlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil etiladi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning izlanishlari asosida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv, reflektiv hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Jumladan, podkastlar, audiokitoblar, mobil ilovalar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar yordamida o'quvchilarning eshitib idrok etish salohiyati, tilga bo'lgan qiziqishi va o'quv motivatsiyasi kuchayishi mumkinligi ko'rsatilgan. Shuningdek, milliy-madaniy kontekstga asoslangan autentik audio materiallar orqali nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyalarni ham rivojlantirish mumkinligi asoslab beriladi. Tinglab tushunish faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish hamda topshiriqli, bo'laklab va ko'p marotaba tinglash kabi strategiyalarning o'quvchilarning til o'rganish samaradorligiga ijobiy ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, audio-matn, podkast, innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuv, lingvokulturologik yondashuv, autentik material, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, madaniy komponent, til o'rgatish metodikasi.

Xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmalarida tinglab tushunish kompetensiyasi chet tilini o'rganish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, Vandergrift [2007] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ushbu ko'nikmani shakllantirishda interaktiv hamda reflektiv yondashuvlardan foydalanish taklif etilgan. Audio-matnlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda samarali tinglash strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa tilni egallash jarayonini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar O'zbekiston olimlari tomonidan ham amalga oshirilgan. Xususan, S. Karimov [2021] ingliz tilini o'qitishda milliy-madaniy omillarni hisobga olgan holda audio-matnlardan foydalanish bo'yicha tajribaviy ishlar olib borgan. Uning izlanishlari natijalariga ko'ra, audio-matnlar yordamida ta'lim berish nafaqat o'quvchilarning leksik salohiyatini oshiradi, balki grammatik bilimlarning tez va samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi.


Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar sifatida podkastlar va audiokitoblardan foydalanish samaradorligi bilan ajralib turadi. Bunday raqamli vositalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, podkastlardan foydalanish orqali o'quvchilar tinglangan materialdagi asosiy g'oyalarni tahlil qilish, ularning mazmunini yozma ravishda ifodalash va shaxsiy mulohazalarni shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, Duolingo, Memrise kabi mobil ilovalar va raqamli platformalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, balki ular uchun tinglab tushunish malakasini mustaqil rivojlantirish imkoniyatini ham yaratadi.

Autentik audio materiallardan foydalanish – masalan, ingliz tilida so'zlashuvchilarning tabiiy muloqotlari, yangiliklar, reklama roliklari – o'quvchilarning real hayotga yaqin talaffuz va aksentlarni idrok etish malakasini rivojlantiradi hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tinglash kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishda ko'p bosqichli tinglash mashqlari alohida o'rin tutadi. Bu jarayon, odatda, uch bosqichda orqali amalga oshiriladi.

¹ Latipov Aziz Akbaraliyevich, PhD dotsent v.b. Samarqand davlat chet tillar instituti



Audio-matnlar bilan ishlash jarayoni talabalarda bir qator muhim lingvistik kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, bu turdagi mashg'ulotlar talaffuz malakasini takomillashtirish, tabiiy til muhitiga moslashuvni ta'minlash hamda tinglab tushunish ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, Field tomonidan autentik materiallardan va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchi S. Karimov esa bu yondashuvlarni mahalliy o'quv muhitiga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan.

Bundan tashqari, audio-matnlardan foydalanish o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Goh o'z tadqiqotlarida tinglash topshiriqlarini o'quvchilarning qiziqishlariga mos mavzular bilan bog'lash, ularning darsdagi faolligini va til o'rganishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Natijada, o'quvchilar tilni faqat akademik maqsadlarda emas, balki hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ham o'rganishga intilishadi.

D.Rasulova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda milliy kontekstga asoslangan yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tinglash mashqlarini o'quvchilarning madaniyati va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi audio-matnlar orqali tashkil etish nafaqat til o'rganishni samarali amalga oshirishga, balki talabalarda milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Tinglash jarayonining samaradorligini oshirishda matn ustida ishlash bosqichlarini tizimli tarzda tashkil etish muhim omil hisoblanadi. Bu borada Field tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, tinglab tushunish faoliyati uch asosiy bosqichga ajratilishi lozim:

1. Tinglashdan oldingi bosqich – matn mavzusi bilan tanishish, asosiy mazmunni oldindan taxmin qilish orqali kognitiv tayyorgarlikni shakllantirish;
2. Faol tinglash bosqichi – matnni tinglash jarayonida asosiy va ikkilamchi axborotni farqlash, axborotni maqsadli qabul qilish;
3. Tahlil va muhokama bosqichi – o'quvchilarning matn mazmuni bo'yicha fikr bildirishlari, savollarga javob berishlari yoki matnga asoslangan interaktiv vazifalarni bajarishlari (masalan, rolli o'yinlar).

Shuningdek, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning tatbiqi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ChatGPT, replika kabi interaktiv dasturlar o'quvchilarga nafaqat audio axborotni idrok etish, balki sun'iy interlokutor bilan muloqotga kirishish orqali tinglab tushunishni faol tarzda mustahkamlash imkonini beradi. Bunday integratsiyalashgan yondashuvlar o'quvchilarning tilga oid kompetensiyalarini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida virtual (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining joriy etilishi til o'rganish samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilar o'zlarini ingliz tilida so'zlashuvchi real kommunikativ muhitda bo'lgandek his qiladilar, bu esa tilga oid bilim va ko'nikmalarni yanada samaraliroq egallash imkonini yaratadi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham bu boradagi izlanishlarda til o'rgatishda madaniy komponentlarga asoslangan autentik materiallardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar. Jumladan, D. Rasulova [2022] o'z tadqiqotida O'zbekistonlik o'quvchilarning madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga oid audio-matnlardan foydalanish, ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini orttirishini hamda tinglab tushunish faoliyatini faollashtirishini ko'rsatadi.

Shuningdek, S. Karimov [2021] tomonidan ilgari surilgan lingvokulturologik yondashuvga ko'ra, audio-matnlar nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy kontekstlarni o'zlashtirish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali o'quvchilar xorijiy tilni o'rganish jarayonida o'sha tilda so'zlashuvchi

xalqning madaniyati, urf-odatlar va axloqiy qadriyatlar bilan ham tanishadilar, bu esa kommunikativ kompetensiyani chuqurroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Tinglab tushunish kompetensiyasini samarali shakllantirish uchun bir qator strategiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

1. Topshiriqli tinglash — tinglashdan avval o'quvchilarga aniq vazifalar belgilanadi. Masalan, matndan asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsatish yoki muhim voqealarni aniqlash vazifasi yuklanadi. Bu usul tinglash faoliyatini maqsadli amalga oshirishga yordam beradi.

2. Bo'laklab tinglash (Chunk Listening) — matn kichik qismlarga ajratiladi va har bir bo'lak tinglangach, o'quvchilar bilan muhokama olib boriladi. Ushbu yondashuv ayniqsa mazmunan murakkab matnlarni bosqichma-bosqich tahlil qilishda samarali hisoblanadi.

3. Ko'p marotaba tinglash (Repeated Listening) — matn bir necha bor tinglanadi, bu esa yangi leksik birliklarni mustahkamlash va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, ingliz tili mashg'ulotlarida audio-matnlar bilan ishlash, ayniqsa zamonaviy texnologiyalarga asoslangan innovatsion usullarni qo'llash orqali, tinglab tushunish va umumiy til ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar audio materiallarning til o'qitishdagi rolini nazariy jihatdan asoslagan bo'lsa, mahalliy olimlar, xususan S. Karimov [2021] va D. Rasulova [2022], bu yondashuvlarning O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida muvaffaqiyatli qo'llanilishini amaliy tajriba orqali tasdiqlamoqdalar.

Maqolada bayon etilgan tavsiyalar va ilmiy asoslar ingliz tilini o'rgatish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, podkastlar, audiokitoblar, interaktiv platformalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasini kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Aliyeva Dilnoza Khasanovna. (2022). *the role of sentences in english comprehension types of sentences in Uzbek and English languages*. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 209–213.
- [2]. Asadova G. Nomustaqil ega vazifasidagi ikki valentli birliklar komponent tahlili //Conference Proceedings: *Fostering Your Research Spirit*. – 2024. – C. 96–98.
- [3]. Bahriddinova, Z. (2024, November). *Task-Based Language Teaching (TBLT) and its Effectiveness in Developing Communicative Competence*. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 517–519).
- [4]. Field, J. *Listening in the Language Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press. 2008.
- [5]. Gilakjani A. P., & Sabouri N.B. *Learners' Listening Comprehension Difficulties in English Language Learning: A Literature Review*. *English Language Teaching*, 2016. 9(6), 123–133.
- [6]. Goh C.C. M. *A Cognitive Perspective on Language Learners' Listening Comprehension Problems*. *System*, 2000. 28(1), 55–75.
- [7]. Karimov S. *Ingliz tili ta'limida audio-matnlardan foydalanishning lingvokulturologik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nashriyoti. 2022.
- [8]. Latipov A. A. *SALES MANAGEMENT METHODS IN THE TOURISM SECTOR INDUSTRIES* //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 46. – C. 459–461.
- [9]. Mardiyeva M. *Frazeologik birliklarni tarjima qilishning muqobil usullari haqida* //Conference Proceedings: *Fostering Your Research Spirit*. – 2024. – C. 674–676.
- [10]. Mishan F. *Designing Authenticity into Language Learning Materials*. Bristol: Intellect Books. 2005.
- [11]. Nation, I. S. P., & Newton, J. *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. New York: Routledge. 2009.
- [12]. Rost M. *Teaching and Researching Listening*. 2nd ed. London: Longman. 2011.
- [13]. Rubin, J. *A Review of Second Language Listening Comprehension Research*. *The Modern Language Journal*, 1994. 78(2), 199–221.
- [14]. Rasulova D. *Mahalliy kontekstda tinglash kompetensiyasini shakllantirishda autentik materiallardan foydalanish*. *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ilmiy jurnali*, 2022. 2(4), 112–118.
- [15]. Shermatov A. *Ingliz va o'zbek tillarida aniqlik hodisasini ifodalashda grammatikalizatsiyaning o'рни* //Conference Proceedings: *Fostering Your Research Spirit*. – 2024. – C. 20–21.

- [16]. Sobirjanovna, M. K. (2025). HOW TO USE ENGLISH SONGS PROPERLY IN TEACHING ENGLISH. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 351-356.
- [17]. Vandergrift L. *Listening: Theory and Practice in Modern Foreign Language Competence*. Cambridge University Press. 2007.
- [18]. Латипов А.А. ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИЕ ЛИЦ МУЖСКОГО ПОЛА //Ученый XXI века. – 2016. – С. 35.
- [19]. Шерматов А. *Tilshunoslikda kommunikatsiya nazariyasi hamda uning jarayonlashuviga doir* //Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 13-16.
- [20]. Холбаев, Ф. (2025). Transforming English Language Teaching: The Dual Impact of Artificial Intelligence on Personalized Learning and Educational Challenges. Лингвоспектр, 2(1), 371-381.
- [21]. Sobirjanovna, M. K. (2025). HOW TO USE ENGLISH SONGS PROPERLY IN TEACHING ENGLISH. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 351-356.
- [22]. Ashurov, S., & Kazieva, G. (2024, November). Chet tillarni o 'qitishda maqol va matallarning o 'rni. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 407-410).
- [23]. Nizomiddinovich, E. M., & Azamatovich, M. U. (2024). CHET TILLARINI RIVOJLANTIRISH. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(30), 226-229